# XALQARO FESTIVALLAR MADANIYATLAR TRANSFORMATSION JARAYONLARNI RIVOJLANTIRUVCHI OMILDIR

**Nilufar Karimova** – *kichik ilmiy xodim*
*Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros ilmiy-tadqiqot instituti*

**Tayanch so‘zlar:** festival, xorijiy davlatlar, san’at, madaniyat, Germaniya, spektaklь, agentligi, diplomatik, rejessyor, qo‘shma madaniyat, kongres.

**Ключевые слова:** фестивальь, зарубежные страны, искусство, культура, Германия, спектакльь, дипломатический, режиссер, совместная культура, конгресс.

**Key words:** festival, foreign countries, art, culture, Germany, performance, diplomatic, director, shared culture, congress.

**KIRISH.** Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi va ko‘plab xalqaro rivojlangan davlatlar o‘rtasida madaniy, iqtisodiy va siyosiy munosabatlarni yanada yaxshilash, rivojlantirish maqsadida turli kelishuvlar amalga oshirilmoqda.

“Hozirgi kunga qadar O‘zbekiston Respublikasi dunyoning 138 ta davlatlari bilan diplomatik aloqalar o‘rnatgan. Toshkentda 44 ta xorijiy elchixonalar, 1 ta bosh kontsullik, 8 ta faxriy kontsullar, 17 ta xalqaro tashkilotlar vakolatxonalari, 13 ta xorijiy xalqaro hukumatlararo va hukumat tashkilotlari vakolatxonalari, 1 ta diplomatik maqomga ega savdo vakolatxonasi faoliyat ko‘rsatmoqda. Xorijiy mamlakatlarda va xalqaro tashkilotlarda O‘zbekiston Respublikasining 55 ta diplomatik va kontsullik vakolatxonalari mavjud. O‘zbekiston 100 dan ortiq xalqaro tashkilotlarning a’zosi bo‘lib, mamlakatimiz turli xil ko‘p tomonlama hamkorlik tuzilmalari bilan o‘zaro sherikchilik aloqalarini rivojlantiradi”.

Xorijiy davlatlar va O‘zbekiston o‘rtasidagi munosabatlarni rivojlantirishda diplomatik va kontsullik vakolatxonalarining o‘rni katta. Bugungi kunda san’at va madaniyat sohalarini yanada rivojlantirish xalqaro hamkorlikni kuchaytirishda O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi, O‘zbekiston Respublikasining diplomatik va kontsullik vakolatxonalari hamda soha bo‘yicha mavjud hamkor tashkilotlarning o‘rni katta.

Birgina O‘zbekiston va Turkiya o‘rtasidagi bugungi kunda madaniyat va san’at sohalarini rivojlantirish uchun davlatlar o‘rtasida amalga oshirilayotgan ishlarni ko‘rib tahlil qilsak.

Samarqand viloyat musiqali drama teatri 2017-yilning yozida turk dramaturgi Tunjar Jujano‘g‘lining “Ko‘chki” spektakli sahnalashtirgan. Asar psixologik drama bo‘lib, voqealar kelin va o‘g‘il atrofida aylanadi. Asarda asos qilib olingan muammo bu – tabiiy ofat, ya’ni ko‘chki emas, yillar davomida avlodlardan avlodlarga o‘tib kelayotgan chirkin irim-sirimlaru, ularga ko‘r-ko‘rona ergashib kelayotgan, ayrim kutilmagan tabiiy hodisalarni noto‘g‘ri talqin qilib, hali hayot zavqini anglashga ulgurmagan yosh kelinchakni aybdor qilib, tug‘ilishga ulgurmagan norasida go‘dagi bilan birgalikda tiriklayin go‘rga ko‘mishdek vahshiy ishni amalga oshirib kelayotgan omi odamlarning mudhish xatolarini aktyorlar mahorat bilan ijro etib, asar mazmunini to‘laqonli tomoshabinlarga yetkazishgan.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Tadqiqot mavzusiga oid adabiyotlar san’at festivallari va ularning jamiyatdagi o‘rni, shuningdek madaniy jarayonlardagi roli haqida chuqur ma’lumot beradi. A. I. Mazaevning “Праздник как социально-художественное явление” asari (1978) bayram va festivallarning ijtimoiy va badiiy jihatlarini yoritib, ularni madaniy hayotda muhim voqea sifatida ko‘rsatadi. Bu ish festival tushunchasining nazariy asoslarini shakllantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, “Справочник Арт-Менеджера: Фестивали” (2002) materiallari san’at festivallarini tashkil etish, boshqarish va ularning amaliy jihatlarini tushunishga yordam beradi, bu esa hozirgi kunda festivallarni muvaffaqiyatli o'tkazish uchun zarur bo‘lgan menejment ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan. Tim Bertning “Музыкальные фестивали сталкиваются с нехваткой финансирования” maqolasi festivallarni moliyalashtirishdagi qiyinchiliklarga e’tibor qaratib, zamonaviy san’at festivallarining barqaror rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qiladi. O‘zbekistonda mustaqillik yillarida san’atdagi biyennale va festivallar faoliyatining badiiy va ijtimoiy asoslarini o‘rgangan D. Shukurovning 2024-yilgi dissertatsiyasi milliy madaniyatning rivojlanishiga xalqaro festivallar orqali erishilayotgan ijobiy natijalarni ko‘rsatadi va madaniyat transformatsiyasidagi o‘ziga xos jihatlarni ochib beradi. Shuningdek, Gazeta.uz resursidagi maqolalar ham festival va madaniyat sohasidagi hozirgi holat va yangiliklarni o‘z ichiga oladi. Bu esa mavzuning dolzarbligini va amaliy ahamiyatini yanada mustahkamlaydi.

**Tahlil va natijalar.** “2017-yilning noyabr oyida teatrning Toshkentga ijodiy safarida asar muallifi Tunjar Jujano‘g‘lining o‘zi ham tashrif buyurib, spektaklni ko‘rib, unga yuqori baho bergan”. “Ko‘chki” asari dunyoning 40 dan ortiq mamlakatlar teatrlarida sahnalashtirilib, muvaffaqiyatli ijro etilib kelinmoqda. 2018-yil 22-aprel kuni Turkiya davlatining Konya shahrida o‘tkazilayotgan “Ming nafas bir ovoz” XI Xalqaro teatrlar festivalida Samarqand viloyati musiqali drama teatri vakillari ishtirok etdi. Teatr jamoasi tomonidan “Ko‘chki” spektakli namoyish etilgan.

Spektaklni Turkiya jamoatchilik vakillari, madaniyat va san’at namoyondalari va teatr muxlislari maroq bilan tomosha qilishib yuqori baho berishgan. Festivalning tashkiliy qo‘mita a’zolari tomonidan teatr jamoasiga Xalqaro anjumanda muvaffaqiyatli ishtirok etganlik haqidagi diplom va statuetka bilan taqdirlangan.

Bundan tashqari 2022-yilning mart oyida Turkiya Respublikasi Altiiylul shahrida “Tulutabak” Xalqaro katta va kichik teatrlar festivalida Qashqadaryo viloyat musiqali drama teatri jamoasining ishtirokini ham alohida e’tirof etish joiz. 9-mart kuni turk rejissyori Kubilay Erdilikara tomonidan Qashqadaryo teatrida sahnalashtirilgan N.Gogolning “Tentakning yozmalari” spektakli festival doirasida eng muvaffaqiyatli namoyishlardan biri bo‘ldi. Spektakl tomoshabinlar va xalqaro jamoatchilik tomonidan katta qiziqish, davomli olqishlar va katta e’tirof bilan qarshi olingan.

O‘zbekiston davlat filarmoniyasi Buxoro viloyat bo‘linmasi huzuridagi “Buxoro mavjlari” ashula va raqs antsambli 2019-yil 19-21-iyul kunlari Yalova shahrida bo‘lib o‘tgan Xalqaro “Turkiy xalqlar madaniy aytishuvi” festivalida qatnashib, milliy an’analar va o‘zbek raqs san’atini keng targ‘ibot qilganligi uchun O‘zbekiston davlat filarmoniyasi Buxoro viloyat bo‘linmasi alohida diplomlar bilan taqdirlandi. “Buxoro mavjlari” ashula va raqs antsambli esa, Gran-pri sohibi bo‘lishdi.

2019-yilda Germaniyaning Braunshveyg shahrida “Magnifest-2019“ xalqaro festivali bo‘lib o‘tdi. Unda O‘zbekistonning turizm salohiyati ham ilk bor targ‘ib etildi. Targ‘ibot ishlari Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi hamda O‘zbekistonning Germaniyadagi elchixonasi tomonidan faol vatandoshlar hamkorligida tashkil etildi. “Magnifest” xalqaro festivali deyarli bir asr davomida o‘tkazilib kelinayotgan, musiqiy va gastronomik namoyishlar bilan tanilgan yirik xalq sayllaridan biridir. Mazkur festivalga har yili Germaniya va unga qo‘shni Yevropa mamlakatlaridan 150 mingdan ziyod aholi tashrif buyuradi. Joriy yilgi “Magnifest” xalqaro festivalida O‘zbekiston ilk marotaba ishtirok etdi. 3 kun davom etib, unda “Sug‘diyona” o‘zbek davlat milliy cholg‘ulari kamer orkestri ham qatnashdi. Ta’kidlash joizki, festival doirasida yurtdoshlarimiz tomonidan ijro etilgan milliy kuy-qo‘shiqlar yig‘ilganlarga ko‘tarinki kayfiyat ulashib, katta qiziqish uyg‘otdi. “Magnifest” festivali O‘zbekistonni xorijda tanitish, jumladan mamlakat turizmini targ‘ib etishda muhim o‘rin tutadi. O‘zbekiston ushbu festivalda birinchi marta ishtirok etayotgan bo‘lishiga qaramay, ishtirokchilar tomonidan mamlakatimizga, xususan milliy madaniyatimiz, san’atimiz va turizm salohiyatimizga katta qiziqish bildirildi.

2019-yilning fevral oyida Tehron shahrida 34 bor tashkillashtirilgan Fajr musiqa festivalida O‘zbekiston nomidan “Saqil” antsambli ishtirok etib o‘zbek mumtoz va milliy cholg‘u kuylarini taqdim etdi. Antsamblninig ijro dasturidan o‘zbek mumtoz musiqa merosidan Shashmaqom, Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llaridagi asarlar bilan bir qatorda mumtoz yo‘nalishdagi xalq kuylari, hamda bastakorlik asarlari ham o‘rin oldi “Saqil” antsambli 2018-yilda Shahrisabz shahrida ilk bora tashkillashtirilgan Xalqaro maqom san’ati forumining “Eng yaxshi maqom antsambli” nominatsiyasi sohibi bo‘lib, jamoaning Fajr festivalidagi ishtiroki OXUS Culture jamiyatining festival tashkilotchilari bilan hamkorligi asosida amalga oshirildi.

**Xulosa va takliflar.** Mustaqillik yillarida O‘zbekiston kinematografiya sohasida ham juda katta yutuqlarni qo‘lga kiritmoqda. O‘zbek milliy kinosi yildan yilga shakllanib, rivojlanib, eng asosiysi yangilanib bormoqda. Bu borada albatta kinofestivallarning, ayniqsa, xorijiy xalqaro kinofestivallarning o‘rni alohida. 2022-yilning may oyida Londonda ECG Film Festival (“Eurasian Creative Guild Film Festival”) Yevrosiyo xalqaro kinofestivali o‘tkazildi va bu festivalga O‘zbekiston ham ishtirokchi sifatida taklif etildi. O‘zbekiston kinematografiya agentligi buyurtmasiga binoan “Yoshlik” kinostudiyasi tomonidan suratga olingan “Ipak yo‘lida” qisqa metrajli filmi ushbu kinofestivalda ishtirok etdi. Mazkur kinofestival dasturidagi filmlar 19-25-may kunlari Londondagi “Premier Cinema” kinoteatrida namoyish etildi.

Kinokartina “Ipak yo‘li durdonasi” Toshkent xalqaro kinofestivali dasturiga kiritilgan “Kino 5 kunda” yosh rejissyorlar loyihasida suratga olingan. Kinofestivalning bosh sovrini “Gran-Pri” hamda “Eng yaxshi aktyor” nominatsiyasida g‘oliblikni qo‘lga kiritgan.

“O‘zbekkino” Milliy agentligi buyurtmasiga binoan suratga olingan rejissyor Yolqin To‘ychievning “Faridaning ikki ming qo‘shig‘i”

va Ayub Shahobiddinovning “Rangsiz tushlar” filmi 2022-yilning 20-26-aprel kunlari bo‘lib o‘tgan “GoEast” (Festival of Central and Eastern Europan Film) xalqaro festivalida ishtirok etdi va bir qancha mukofotlarga ega bo‘ldi. Mazkur kinofestival har yili Markaziy va Sharqiy Yevropaning turli mintaqalaridan badiiy, hujjatli va animatsion filmlarni saralab oladi va turli nominatsiyalar bo‘yicha mukofotlaydi. (Shuningdek, Sobiq ittifoq tarkibiga kirgan davlatlar filmlari ham ishtirok etadi)

2021-yilning 8-12-noyabr kunlari Turkiyada bo‘lib o‘tgan “Korkut ata” xalqaro kinofestivalida taniqli o‘zbek kinoijodkorlari ham ishtirok etishgan. Kinofestival dasturida “O‘zbek kinosi kuni” tashkil etilib Kinematografiya agentligi buyurtmasiga binoan suratga olingan rejissyor Rashid Malikovning “Tutqunlik”, rejissyor Ali Hamraevning “Xalq jasorati”, Jahongir Ahmedovning “Ilhaq” filmlari ham namoyish etilgan. “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 15-sentyabrdagi “Xavfsiz, tartibli va qonuniy mehnat migratsiyasi tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-4829-son qarori”ga muvofiq joriy yilning 15-25-oktyabr kunlari Turkiya Respublikasining Anqara, Bursa, Antaliya va Istanbul shaharlarida o‘zbekistonlik mashhur san’atkorlar ishtirokida O‘zbekiston madaniyat kunlari o‘tkazilgan. Bu kabi madaniyat va san’at sohalarini rivojlantirish uchun amalga oshirilayotgan hamkorlik aloqalarini misol tariqasida ko‘plab keltirish mumkin.

Bugungi kunda jahon madaniyat sohasida keng ko‘lamli festivallar namoyish etilmoqda. Bu haqiqat shuni ko‘rsatadiki, festivallar xalqaro madaniy hamkorlik doirasida dolzarb vositaga aylandi. Ushbu bayonot zamonaviy dunyoda festivallar quyidagi xususiyatlarga ega bo‘la boshlaganligi bilan bog‘liq: ishtirokchilarning xalqaro tarkibi, festivallar dasturining bitta janrdan tashqariga chiqishi, bunday tadbirlarni tashkil etish jarayoni yanada murakkablashdi. Ya’ni festivallarni tashkil qilishni qo‘llab-quvvatlashda nafaqat tijorat kompaniyalari yoki ixtiyoriy uyushmalar, shuningdek, davlat institutlari, xalqaro tashkilotlar, xalqaro ijodiy uyushmalar va boshqalar ham ishtirok eta boshladi. Festivallar dasturining bitta janrdan tashqariga chiqishi, bunday tadbirlarni tashkil etish jarayoni yanada murakkablashdi. Ya’ni festivallarni tashkil qilishni qo‘llab-quvvatlashda nafaqat tijorat kompaniyalari yoki ixtiyoriy uyushmalar, shuningdek, davlat institutlari, xalqaro tashkilotlar, xalqaro ijodiy uyushmalar va boshqalar ham ishtirok eta boshladi.

Festival tadbirlarining ijodiy muloqotni rivojlantirishga ta’siri ham ravshanlashmoqda. Bunday loyihalar, qoida tariqasida, butun dunyodagi ijodiy sanoat vakillari o‘rtasida fikr va g‘oyalar almashish uchun universal va qulay platformaga aylanadi

Xulosa qilib ayganimizda O‘zbek milliy san’atini rivojlantirish, targ‘ib qilish va uni yanada ommalashtirish, xorijiy xalqaro musiqa festivallari tashkilotlari bilan ijodiy hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, iqtidorli ijodkor yoshlarni qo‘llab-quvvatlash hamda rag‘batlantirish, o‘zbek san’atining barcha yo‘nalishlarida xalqaro va respublika miqyosidagi festivallarni, ko‘rik-tanlovlarni ko‘paytirish bugungi kunda xalqaro turizmni yanada rivojlantirishga turtki bo‘ladi degan umiddamiz.

**Adabiyotlar**

1. Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent.: O‘zbekiston, 2016-yil.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 31-maydagi “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3022-son qarori // Xalq so‘zi, 2017-yil.

3. Мазаев А. И. Праздник как социально-художественное явление. - М.: Наука, 1978. – 393 с.

4. Справочник Арт-Менеджера: Фестивали / Арт-менеджер. 2002. № 2. – С. 42-44.

5. Тим Берт. Музыкальные фестивали сталкиваются с нехваткой финанцирования.

6. Shukurov D. Mustaqillik yillarida O‘zbekiston san’atida biyennale va festivallar faoliyatining badiiy ijtimoiy asoslari dissertatsiyasi. 2024-yil.

7. www.gazeta.uz

**REZYUME.** Ushbu maqolada san’at festivallarining xorijda va yurtimizda tashkil etilishi o‘ziga xos xususiyatlari umumiy tarzda ilmiy tahlil qilib berilgan. Unda keltirilgan ma’lumotlar Prezidentimiz tomonidan chiqarilgan farmon va qarorlar bilan asoslangan.

**РЕЗЮМЕ.** В данной статье проводится общенаучный анализ, раскрывающий особенности организации фестивалей искусств за рубежом и в нашей стране. Приведенная информация основана на указах и решениях Президента.

**SUMMARY.** This article conducts a general scientific analysis revealing the features of organizing art festivals abroad and in Uzbekistan. The information presented is based on the decrees and resolutions of the President.

## MÁLIMLEME –KITAPXANA MEKEMELERINDE XÍZMET KÓRSETIW USÍLLARÍ

**Mambetova Ayxan** – *magistr*
*Ózbekstan mámleketlik kórkem óner hám mádeniyat institutı Nókis filialı*

**Tayanch so‘zlar:** kitob, kutubxona, axborot xizmati, kitobxon foydalanuvchi.
**Ключевые слово:** библиотека, библиотека, служба образования, библиотечная эксплуатация.
**Key words:** the book, the library, education services, using the library.

Búgingi kúnde málimleme-kitapxana xizmetin kórsetiwde tiykarǵı itibar paydalanıwshılarǵa jeke hám ǵalabalıq xizmet kórsetiwdiń shet el hám innovciyalıq formaları hám usılların ózlestiriw hám tarawdıń xizmetkerlerin xalıq aralıq talap dárejesinde mamanlıǵın asırıw zárúriyatın saplastırmaqta.

Málimleme kitapxana mákemelerinde xizmet kórsetiw usılları túrli jónelisler boyınsha rawajlanıp, paydalanıwshılarǵa zamanagóy hám qolay xızmetler usınıwdı maqset etken. Tómende málimleme kitapxana mákemelerinde xizmet kórsetiwdiń tiykarǵı usılları keltirilgen:

1. *Dástúriy xızmetler*: Kitap beriw hám qabıllaw: Kitapxana aǵzaları ushın kitaplardı waqtınsha alıw hám qaytarıw. Kitaplar hám dereklerdi qıdırıw: Paydalanıwshılar ushın kerekli ádebiyatlardı tabıwda járdem beriw.

Qaytarıw múddetlerin basqarıw: Kitaplardı belgilengen múddette qaytarıw hám múddetti uzaytırıw múmkinshilikleri.

2. *Sanlı xızmetler*: Elektron kitaplar hám derekler: Kitapxana aǵzalarına e-kitaplar, maqalalar hám basqa cifrlı materiallardı usınıw.

Onlayn kataloglar: Kitapxana fondına onlayn kirisiw, kerekli materiallardı qıdırıw hám alıw. Onlayn xızmetler: Kitapxana maǵlıwmatlarına aralıqtan kirisiw hám paydalanıwshılar menen onlayn ushırasıw.

3. *Arnawlı xızmetler:* Maǵlıwmatlar bazaları hám ilimiy resurslar : Paydalanıwshılarǵa ilimiy maqalalar, jurnal hám basqa ilimiy dereklerge kirisiw múmkinshilikleri.

Jeke máslahátlar hám referat xızmetlerin: Paydalanıwshılarǵa maǵlıwmatlar boyınsha máslahátlar beriw.

Seminarlar, treninglar hám kurslar: Málimleme kitapxanası tárepinen shólkemlestirilediǵan tálim hám oqıw programmaları.

4. *Oqıw hám izertlew ortalıǵın jaratıw*: Oqıw zallari: Paydalanıwshılar ushın qolay oqıw jayları hám jumıs stolların usınıw.

Jumısshı toparlar hám toparlar: Paydalanıwshılarǵa óz izertlewleri yamasa oqıw xızmetleri ushın topar formasında islew múmkinshilikleri.

5. *Paydalanıwshılarǵa járdem beriw*: Járdemshi xızmetler: Kitaplardı tańlaw, izlew hám olardan paydalanıw boyınsha máslahátlar.

Imkaniyatı sheklengenlerge maslasqan xızmetler: Mayıplar hám basqa arnawlı mútajliklerge iye paydalanıwshılar ushın xızmetler.

6. *Social hám mádeniy ilajlar*: Mádeniy ilajlar hám kórgezbeler: Kitaplar hám maǵlıwmatlar tiykarında mádeniy ilajlar, kórgezbeler, hám basqa social xızmetler.

Jazıwshılar hám avtorlar menen ushırasıwlar: Paydalanıwshılarǵa jazıwshılar yamasa avtorlar menen ushırasıw múmkinshiliklerin jaratıw.

Kitapxanalarda xızmetler ózgeriwshen hám innovciyalıq bolıp, paydalanıwshılarǵa eń qolay hám nátiyjeli xızmetlerdi usınıwǵa háreket etiledi.

Ayırım rawajlanǵan mámleketler kitapxanaların jumıs tájiriybelerin úyrengende olar kitapxanlardı 15% - 20% ke jaqının kitapxanalardan sırtta ádebiyatlar menen támiyinlew usıllarınan paydalanıp kelmekte. Sonı esapqa alıp paydalanıwshılardı kitapxanalardan tısqarı xizmet kórsetiw usıllarınıń jańa usılların qáliplestirip texnika qurallarından nátiyjeli paydalanıp kelmekte. Hátte bul usıllarınıń ayırımların 2 smenada islewdi usınıp atır. Buǵan kóshpeli kitapxanalar mısal bola aladı. Kitapxanaǵa kóbirek tartıw, xalıq ortasında kitap oqıwdı keńen jaydırıw maqsetinde málimleme-kitapxana xizmetin kórsetiwdiń kitapxanadan sırttaǵı xizmet kórsetiw formalarınan paydalanıladı. Maqset: kitap hám málimlemeni hár bir paydalanıwshıǵa jetkiziw, statsionar kitapxanadan uzaq orında jasap atırǵan yamasa islep atırǵan paydalanıwshını kitap hám málimlemeden paydalanıwı ushın múmkinshilik jaratıwdan ibarat.